



ANDIJON VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT

Kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish - buyuk maqsadlarimizga erishishning muhim kafolatidir.

Sh.Mirziyoev



poydevordir. Ajdodlarimiz tomonidan bizgacha yetib kelgan barcha ilmiy-ma'rifiy bo'yliklar albatta bu kitob orqalidir. Hozirgi kunda yurtimizda yosh avlodning ma'rifati va

ma'naviyatini yuksaltirishda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish uchun alohida e'tibor qaratilmoqda. Ma'naviyati boy inson har erda doimo qadrlangan.


2018 yilda Andijon viloyati bo'yicha jami 250 ta kutubxona muassasalari faoliyat ko'rsatgan. Ushbu muassasalardagi kitob va jurnallar soni 4982,2 ming nusxani tashkil etgan bo'lib, ulardan foydalanuvchi kitobxonlar soni 653,9 ming kishidan iborat. Yil davomida kitobxonlarga jami 17351,4 ming nusxadagi kitob va jurnallar foydalanish uchun berildi.

**2018 yilda Andijon viloyatidagi kutubxona muassasalarining
asosiy ko'rsatkichlari**




2018 yilda o'rtacha bitta muassasaga to'g'ri keladigan kitob va jurnallar soni 19928,9 nusxani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich shahar joylardagi muassasalarda - 24102,8 nusxaga, qishloq joylardagi muassasalarda - 10189,7 nusxaga to'g'ri keldi.

O'rtacha bitta muassasadagi foydalanuvchilar soni viloyat bo'yicha 2615,5 nafarni tashkil etadi. Shahar joylarda bu ko'rsatkich 3119,4 nafarga, qishloq joylarda 1437,7 nafarga to'g'ri kelgan.



2018 yilda viloyatdagi kutubxona muassasalarida jami 1070 nafar kutubxona xodimlari kitobxonlarga xizmat qilganlar. Ularning 993 nafarini, yani 92,8 % ni ayollar tashkil etadi. Jami kutubxona xodimlarining 210 nafari oliy, qolgan 819 nafari o'rta ma'lumotga ega. Mutaxassisligi kutubxonachilik bo'lgan xodimlar soni jami 611 nafardan iborat. Kutubxona xodimlarining 903 nafari shahar joylarda va qolgan 167 nafari qishloq joylardagi muassasalarda xizmat qiladilar.

**2018 yilda Andijon viloyatidagi kutubxona muassasalari
xodimlari soni, birlik**



2018 yil yakuniga ko'ra viloyat kutubxona muassasalaridagi kitob fondi 4982,2 ming nusxadan iborat. Umumiy fond xajmidan davlat tilidagi kitoblar 3071,0 ming nusxani, rus tilidagi kitoblar 1633,6 ming nusxani va boshqa tillardagi kitoblar 277,6 ming nusxani tashkil etdi. Yil davomida jami 734,6 ming nusxada kitob kelib tushgan va 418,5 ming nusxa kitoblar hisobdan chiqarilgan.

2018 yilda Andijon viloyati bo'yicha 32 xil turdagi gazetalar chop etilgan. Ulardan bir martalik gazetalar 72,2 ming nusxada, yillik gazetalar 2953,9 ming nusxada gazetxonlarga yetkazib berilgan.

Viloyat bo'yicha 2018 yilda 13 ta kitob va risolalar 3,9 ming nusxada davlat tilida nashr qilingan. O'tgan 2017 yilga nisbatan taqqoslaganda ularning soni nashri 7 taga ko'paygan.

Viloyatda yil davomida jurnallar va boshqa davriy nashrlar soni 5 tani tashkil etadi. Ulardan 4 tasi davlat tilida nashr qilinadi. 2018 yil davomida 64,4 ming nusxada nashr qilingan bo'lib, ularning 62,7 ming nusxasi o'zbek tilidagi nashrlar hisoblanadi.

O'tgan 2017 yil bilan taqqoslaganda jurnallar va boshqa davriy nashrlar soni 1 taga ortgan. Ularni nashr etilishi 29,7 ming nusxaga, o'zbek tilida nashr qilinganlari esa 2 barobarga ko'paygan.

2018 yilda Andijon viloyati bo'yicha jurnallar va boshqa nashrlar




2018 yilda Andijon viloyatida 2 ta muzey faoliyat ko'rsatgan. Yil davomida tashrif buyurganlar soni 106,9 ming nafarni tashkil etdi.

Muzeydning yil oxiridagi asosiy fond eksponatlari soni 109606 taga yetgan.



Jumladan : arxeologiyaga doir buyumlar 41629 ta, turli xildagi sur'atlar 20916 ta, xujjatlar 13530 ta, numizmatika buyumlari 12736 ta, amaliy san'at buyumlari 3508 ta,

maishiy va etnografiya buyumlari 2615 ta, rassomlikka oid eksponatlar 449 ta, grafika 444 ta, haykaltaroshlik 50 ta va boshqa turdagi eksponatlar 13729 tadan iborat.



2018 yilda Andijon viloyatida 3 ta teatr jamoasi faoliyat ko'rsatgan. **Andijon viloyat musiqa drama teatri, Abbos Bakirov nomidagi bolalar**



va yoshlar teatri va Lola qog'rchoq teatrlari. Yil davomida usbu teatrlarda 447 ta spektakllar (tomoshalar) xalqimizga taqdim etildi. Teatrga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni 124 ming kishini tashkil etdi

2018 yilda 132 ta drama, 175 ta yosh tomoshabinlar, 140 ta qo'g'irchoq janridagi spektakllar namoyish etildi. Jami 124 ming nafar tomoshabinlarning 37 ming nafari drama, 35 ming nafari yosh tomoshabinlar va 52 ming nafari qo'girchoq teatriga



tashrif buyurgan. Jami tomoshabinlardan 18,5 ming nafari qishloq aholisi hisoblanadi. Bundan tashqari 21,8 ming nafari aholiga bepul tomosha taqdim etilgan bolib, ularning 5,7 ming nafari qishloq joylardagi aholi hisoblanadi.

Viloyatning teatr jamolarida 112 nafar artist xodimlar faoliyat olib borgan. Ularning 42 nafari, ya'ni 37,5 % ni ayollar tashkil qiladi.

2018 yilda Andijon viloyati bo'yicha 3 konsert tashkilotlari faoliyat ko'rsatgan. Ulardan 1 tasining faoliyati filarmoniya, qolgan 2 tasining faoliyati gastrol-konsertdan iborat.

Yil davomida ushbu tashkilotlar tomonidan 129 ta konsert tomoshalari xalqimizga namoyish etilgan. Ulardan 115 tasi filarmoniya, 14 tasi gastrol-konsertdan iborat. O'tkazilgan tadbirlardagi tomoshabinlar soni jami 76,5 ming kishini tashkil etdi.



Viloyat bo'yicha konsert tashkilotlari ichidan 1 tasi doimiy jamoa sifatida faoliyat olib boradi. Ularda xizmat qilayotgan artist xodimlar soni 75 nafarni tashkil etadi. Umumiy artistl xodimlarning 47,4 % , yani 36 nafari ayollardan iborat.




2018 yilda Andijon viloyatida 26 ta madaniyat va istirohat bog'lari faoliyat olib borgan. Andijon shahrining markazida joylashgan Alisher Navoiy

va Cho'lpon nomidagi madaniyat va istiroxat bog'lari, Bolalar bog'i, Bog'ishamol hududida joylashgan Z.M.Bobur nomidagi milliy bog' kabi madaniy dam olish maskanlari shular jumlasidandir. Ularning umumiy yer maydoni 467,7 gektarni tashkil etadi.

Bundan tashqari viloyat bo'yicha 93 ta madaniy dam olish ob'ektlari mavjud. Dam olish maskanlariga jami 205 ta turli xildagi atraksionlar o'rnatilgan. Yil davomida ularga jami 934,3 ming nafar aholi tashrif buyurgan. Ulardan 575,7 nafarini, yani 61,6 % ni bolalar tashkil etadi.

Viloyatning madaniy dam olish maskanlarida 2018 yil davomida jami 62 ta madaniy dam olish va jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish ko'ngilochar tadbirlari o'tkazildi. O'tkazilgan ushbu tadbirlarning 49 tasi yoshdagi bolalarga bag'shlangan.






Viloyat bo'yicha 359 ta ***moddiy madaniy meros ob'ektlari*** mavjud. Ulardan 135 tasi respublika ahamiyatidagi ob'ektlar bo'lsa, qolgan 224 tasi mahalliy ahamiyatga ega ob'ektlar sirasiga kiradi. Jami ob'ektlarning 342 tasi davlat mulki hisoblanib, 17 tasi xususiy mulkka tegishlidir.



Andijon viloyatidagi moddiy madaniy meros ob'ektlari soni
(birlik)



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI
ANDIJON VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI
IJTIMOIIY SOHA STATISTIKASI BO'LIMI
TELEFON (0371-230-82-74);
(0374-228-29-70);

